# PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI








IQTIDORLI YOSHLARNI TANLASH, O'QITISH VA TARBIYALASH

SELECTION, TRAINING AND EDUCATION OF YOUTH TALENTED

YOSH ISTE'DODLARNI YANADA QO'LLAB-QUVVATLASH VA RAG'BATLANTIRISH

FURTHER SUPPORT AND ENCOURAGEMENT OF YOUTH TALENTED

DASTUR, DARSLIK VA O'QUV USLUBIY QO'LLANMALARNI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING CURRICULA, TEXTBOOKS, AND TEACHING AIDS



Yurtimizdan dunyo ilm-fan taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Yoshlarimizni ularga munosib ma'rifatli, ilmli qilib tarbiyalashimiz lozim.

Our people have included great thinkers who have made a huge contribution to the development of world civilization. We must raise up the youth to be worthy of our great ancestors, to create educated and enlightened individuals

**Mirziyoyev Shavkat Miromonovich**



### Wolfgang A. Herrmann

**Yangi O'zbekiston Universiteti faxriy rektori**

**Honorary Rector of the New University of Uzbekistan**

Yangi O'zbekiston universiteti fan va texnologiyaning birinchi darajali markaziga aylanishi, va butun Markaziy Osiyoga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

The New University of Uzbekistan can become a leading center of science and technology, and have a strong impact on the whole Central Asia.



### Stefania Giannini

**UNESCO Bosh direktorining ta'lim bo'yicha o'rinbosari**

**UNESCO Assistant Director-General for Education**

YUNESKO Prezident ta'lim muassasalari agentligiga maktab boshqaruv tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va boshqalar orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ko'mak ko'rsatishga tayyor.

UNESCO is ready to implement projects to assist the The Presidential Agency of Educational Institutions aimed at improving the quality of education by improving the school administration system, developing curricula that meet international standards, and others.



### Steve King

**Cambridge Assessment tashkilotining ta'lim yo'nalishi bo'yicha bosh maslahatchisi**

**Cambridge Assessment's Chief Education Adviser**

O'zbekiston keyingi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan mamlakat hisoblanadi. Qolaversa, biz xorijliklarga yangi loyihalarni amalga oshirish va samarali faoliyat yuritish uchun juda qulay, keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Uzbekistan is a rapidly developing country in recent years. In addition, we are creating a wide range of opportunities for foreigners to implement new projects and operate effectively.

# PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TO'G'RISIDA

# ABOUT THE PRESIDENTIAL AGENCY OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Agentlik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi PQ-5188-son qaroriga muvofiq quyidagi maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan:**

- Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish;
- ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish.

**The Agency was created in accordance with the decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 19, 2021 Nº PP-5188 with the following objectives:**

- to create more favorable conditions for the expansion of the network of creative and specialized schools
- to strengthen their material and technical base
- to further their activity in the field of identification, selection, training and improvement of the secondary education system

### MAQSAD

- Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash;
- yosh iste'dodlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va nashr etishdagi muammolarni bartaraf qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish;
- umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish va tashkil etishning maxsus tizimini yaratish.

### OBJECTIVE

- identify, select and educate young talented people with enhanced support
- support and encourage young talented and gifted individuals
- raise the level of work on the preparation and publication of textbooks and teaching and methodological manuals to a qualitatively new level
- create a special system of management and organization of the activities of secondary education institutions

### ASOSIY VAZIFALAR

- Iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish;
- davlat ta'lim standartlariga muvofiq agentlik ta'lim muassasalari faoliyatini yagona shaklda muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;
- o'quv-tarbiyaviy jarayoniga ilg'or ta'lim shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish;
- o'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, bag'rikenglik tuyg'ularini, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish;
- ularning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy rivojlanishi darajasini yanada oshirish;
- xalqaro tashkilotlar va ekspertlarni jalb qilgan holda pedagogik kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

### MAIN FUNCTIONS

- development of a single state policy in the field of talented youth identification, selection, training and education and its effective implementation;
- coordination and methodological management of the activities of agency educational institutions in accordance with state educational standards;
- introduction of advanced forms of education, pedagogical technologies and information innovations in the educational process;
- formation of patriotism and love for the motherland, feelings of tolerance, respect for laws, national and universal values in students;
- further increase the level of students' spiritual, moral, and physical development;
- introduction of an advanced and transparent organizational and legal frameworks of selection, training, retraining and professional development of pedagogical personnel with the involvement of international organizations and experts



**ABDURAZZOQOV MUHAMMADJON**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktab o'quvchisi**

**Student of the Specialized IT School named after Muhammad al-Khwarizmi**

Muhammad al-Xorazmiy maktabi zamonaviy maktab bo'lib, bu yerda juda ko'plab sharoitlar yaratilgan. Bu maktabda o'qiydigan o'quvchilar boshqa maktablardan ko'ra ko'proq bilim olishadi va olgan bilimlari nafaqat yurtimizdagi, balki xorijiy oliy o'quv yurtlariga kirishlari uchun ham yetarlidir.

---

Muhammad al-Khwarizmi School is an up to date school with a lot of facilities. The students of this school acquire more education than in other schools, and the knowledge is sufficient not only for our education system, but also for admission to foreign universities.



**NIYOZOVA RA'NOXON, MURODOVA ZABARJAD**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktab o'quvchilari**

**Students of the Specialized IT School named after Muhammad al-Khwarizmi**

Maktabimiz eng zamonaviy, eng sifatli ta'lim beribgina qolmasdan, biz o'quvchilarga, ayniqsa, qizlarga turli xil xalqaro tanlovlarda o'z loyihalarimiz bilan ishtirok etish imkonini beradi. Hackaton, Technovation Girls, Digital Generation, DigyGirls kabi tanlovlarda muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqdamiz.

---

Our school provides the most up-to-date, high-quality education, and also allows students, especially girls, to participate in various international competitions. We regularly participate in events such as Hackathon, Technovation Girls, Digital Generation, and DigiGirls.



**ABDULAZIZ MIRSAGATOV**

**Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi**

**Student of the Tashkent Presidential School**

Mazkur maktab akademik bilimlar, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirmoqchi bo'lgan barcha o'quvchilar uchun ideal sharoitlarni taqdim etadi. Biz bu yerda hamjihatlikda ishlash, har kuni yangi sarguzashtlarni yaratishni va haqiqiy do'stlikni qadrlashni o'rgandik.

---

This school can be an ideal for all students who are going to develop their academic knowledge, critical thinking as well as creativity. We have learned here how to work collaboratively, create new adventures every day and appreciate real friendship.



**ABDUMALIKOVA GULI-RA'NO**

**Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi**

**Student of the Tashkent Presidential School**

Mazkur maktabda ta'lim olar ekanman, men unutilmas tajribaga ega bo'ldim, umumiy maqsad uchun birlashgan odamlarni uchratdim. Ta'lim yondashuviga kelsak, STEAM – tajribalar orqali o'rganishga, qat'iyatlilik, jamoaviy ish bilan muammolarni hal qilishga va muammolarga ijodiy yechim topishga o'rgatadigan butunlay yangi dunyo.

---

Studying at this school I had an unforgettable experience and met amazing people, but united here for a common goal. As for the educational approach, STEAM is a whole new world that teaches us to, engage in experiential learning, and to solve problems with teamwork, and find creative solutions to problems.

Toshkent shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Tashkent

Farg'ona shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Ferghana

Namangan shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Namangan

Samarqand shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Samarkand

Nukus shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Nukus




Xiva shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Khiva

Andijon shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Andijan

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Karshi

Nurafshon shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Nurafshon

Termiz shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Termez

Jizzax shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Jizzakh

Buxoro shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Bukhara

Guliston shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Gulistan

Navoiy shahridagi Prezident maktabi

Presidential School in Navoiy

Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabi (Qoraqalpog'iston Respublikasi)

Creativity school named after Ibrayim Yusupov (Republic of Karakalpakstan)

Isxoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi (Namangan viloyati)

Creativity school named after Ishakhon Ibrat (Namangan)

Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi (Qashqadaryo viloyati)

Creativity school named after Abdulla Oripov (Kashkadarya)

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi (Farg'ona viloyati)

Creativity school named after Erkin Vohidov (Ferghana)

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi (Toshkent shahri)

Creativity school named after Abdulla Kadiri (Tashkent)

Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi ijod maktabi (Xorazm viloyati)

Creativity school named after Muhammadrizo Ogahi (Khorezm)




Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi (Sirdaryo viloyati)

Creativity school named after Khalima Khudoiberdieva (Sirdaryo)

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab (Toshkent)

Specialized school named after Muhammad al-Khwarizmi (Tashkent)

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi (Jizzax viloyati)

Creativity school named after Hamid Olimjon and Zulfiya (Jizzakh)

Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab (Toshkent)

Specialized school named after Mirzo Ulugbek (Tashkent)

Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi (Andijon viloyati)

Creativity school named after Muhammad Yusuf (Andijan)

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab (Toshkent)

Specialized school named after Avicenna (Tashkent)

## PREZIDENT MAKTABLARINING O'ZIGA XOSLIGI

Prezident maktabida Kembrij tajribasini qo'llagan holda STEM fanlari amaliyot bilan chambarchas bog'lab o'qitiladi. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislar bilan birga mahalliy o'qituvchilar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiradilar, ularda yetakchilik va notiqlik san'ati, shuningdek, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga ko'mak beradilar.

Tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilib, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari o'sishi va ishlanmalarini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Bugungi kunda respublika hududi bo'ylab 14 ta Prezident maktabi faoliyat yuritmoqda. Prezident maktablarida 2112 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

## UNIQUENESS OF PRESIDENTIAL SCHOOLS

At the Presidential School, STEM subjects are taught in tight connection with Cambridge practice. In highly qualified foreign experts and local teachers develop students' leadership and public speaking skills, and also help develop critical thinking, information retrieval, analysis, and processing skills.

In-depth study of the natural and exact sciences, foreign languages, and engineering and information technology will create the necessary conditions for the growth and development of students' innovative ideas.

There are currently 14 Presidential schools in the country, with 2,112 students.




**Prezident maktablariga kelib tushgan arizalar hududlar kesimida**

**Applications received by presidential schools are by region**



## IJOD MAKTABLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Badiiy adabiyot va ijod sohalariga qiziqadigan, iqtidorli yoshlarning iste´dodini yanada rivojlantirish uchun barcha hududlarda taniqli shoir va adiblar nomlari bilan atalgan ijod maktablari tashkil qilingan. O‘quvchilarga adabiyot, tilshunoslik va chet tilini mukammal o‘rgatib, ijod maktablari kelajakda shoir, yozuvchi, tarjimon, jurnalist, lingvist olim, diplomat kabi kasblarga yo‘naltiriladilar.

Iqtidorli bolalarga ona tili va adabiyot sohasining sir-asrorlarini o‘rgatish bilan birga ularning dunyo tillarini chuqur o‘rganishi ta´minlanadi, bu bilan kelajakda o‘zbek adabiyoti, jurnalistikasi orqali o‘zbek adabiyoti va san´ati, fan yutuqlarining jahonga keng ommalashishini ta´minlaydigan kadrlar tayyorlanadi.

Bugungi kunda 9 ta ijod maktabida 1495 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda.

## UNIQUENESS OF CREATIVE SCHOOLS

Creative schools named after well-known poets and writers have been established in all regions to further develop the artistry of talented young people interested in the literary arts. With excellent teaching of literature, linguistics, and foreign languages, creative schools will develop students' future careers as poets, writers, translators, journalists, linguists, and diplomats.

In addition to teaching gifted children their native language and literature, they will be able to study world languages extensively - thus preparing people for the future popularization of Uzbek literature, art and science through Uzbek literature and journalism.

Today, there are 1495 students study in 9 creative schools.

**Ijod maktablariga kelib tushgan arizalar**

**Applications received from creative schools**





## IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Ulug' allomalar – Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sinolarning buyuk va bebaho merosini qadrlash, uni yosh avlod ongiga chuqur singdirish, o'quvchilarning aniq va tabiiy fanlarning yuksak marralarini zabt etishiga sharoit yaratilgan.

Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan keng foydalangan holda matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya va chet tillarini chuqur o'qitilishini tashkil etish; o'quv jarayonining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan uzviyligini ta'minlangan.

Bugungi kunda ixtisoslashtirilgan maktablarda 1494 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

## UNIQUENESS OF SPECIALIZED SCHOOLS

The great and invaluable heritage of the great scholars Muhammad al-Khwarizmi, Mirzo Ulugbek, Abu Ali ibn Sino has been preserved and it passed on in the minds of the younger generation.

These schools organize in-depth teaching of mathematics, physics, computer science, chemistry, biology and foreign languages with the extensive use of modern information and pedagogical technologies; conditions have been created to ensure that the learning process is integrated with the manufacturing and service sectors.

Currently 1494 students study in specialized schools.




### Ixtisoslashtirilgan maktablarga kelib tushgan arizalar

### Applications received from specialized schools




Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab

Specialized school named after Mirzo Ulugbek

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab

Specialized school named after Avicenna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab

Specialized school named after Muhammad al-Khwarizmi




# ERISHILGAN YUTUQLAR

Agentlik tizimidagi Prezident maktablari (Toshkent, Namangan, Xiva, Nukus shahridagi)ning 96 nafar ilk bitiruvchilaridan 88 nafari Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya, Avstraliya va boshqa davlatlarning nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtlaridan taklifnomalar oldilar. Shundan 25 nafari xorijiy, 8 nafari mahalliy hamda 6 nafari mamlakatimiz hududida faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirdi. Shuningdek, bitiruvchilarning 57 tasi "Yangi O'zbekiston" universitetida tahsil olmoqda.

Agentlik tizimidagi Ijod maktablari o'quvchilarini keng jamoatchilikka tanishtirish, ularning iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Ijod maktablarida ta'lim olayotgan iqtidorli o'quvchilarning 41 ta ijodiy ishlari to'plami chop etilib, Respublika va hududiy nashrlarda 200 dan ortiq ijodiy ishlari nashr etildi.

Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy ishlarini muntazam to'plam sifatida chop ettirish tizimi yo'lga qo'yildi. Xususan, o'quvchilarining ijodiy ishlari jamlanib, "Ijod bog'idan guldasta" nomli to'plamning 2 nashri jamoatchilikka taqdim etildi.

Alisher Navoiy ijodini targ'ib etish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari tomonidan "Navoiy" mobil

# ACHIEVEMENTS

Out of the 96 students of the first graduating class of the Presidential Schools (from Tashkent, Namangan, Khiva, and Nukus), 88 received invitations from prestigious foreign universities in the United States, Great Britain, Germany, Japan, Australia and other countries. Of these, 25 are studying abroad, 8 entered local universities, and 6 are studying at foreign higher education institutions operating within Uzbekistan. In addition, 57 graduates are studying at New Uzbekistan University.

In order to introduce the students of the Creative Schools to the general public and to support their talents, 41 collections of creative works of gifted students studying in Creative schools have been published, and more than 200 creative works have been published at national and regional levels.

In addition, a system of publishing students' creative works as a regular collection has been established. In particular, the creative works of students were collected and 2 editions of "Bouquet from the Garden of Creativity" have been presented to the public.

In order to promote the work of Alisher Navoi, the mobile app "Navoi" has been developed by students of specialized schools. The content of the app is constantly enrichedupdated by students of creative schools.

Textbooks "Literature" and "Textual lessons" for 7th grade students of creative schools have been published, and

ilovasi ishlab chiqildi. Mobil ilova kontenti ijod maktablari oʻquvchilari tomonidan muntazam boyitib borilmoqda.

Ijod maktablarining 7-sinfi oʻquvchilari uchun “Adabiyot”, “Matnshunoslik saboqlari” darsliklari chop etilib, maktablarda tajriba-sinovdan oʻtmoqda hamda fikr-mulohaza olish uchun ekspertlarga taqdim etildi.

**Oʻtgan ikki oʻquv yili mobaynida 4 ta Prezident maktabining 95 nafar oʻquvchilari nufuzli xalqaro oflayn va onlayn fan olimpiadalarida (VANDA, IJSO, SEAMO, SASMO, AMC, HKIMO, AMO, World Writing Cup, MIREA/ EYLER, Innovum, Jautikov, OTEC, IBO, IPhO, HIPPO) ishtirok etib, 45 ta I oʻrin, 35 ta II oʻrin va 39 ta III oʻrinlarni qoʻlga kiritdilar.**

Agentlik tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan IT maktab “Zamin” Xalqaro jamoat fondi bilan yaqin hamkorlik olib bormoqda. Xususan, eshitish imkoniyati cheklangan yoshlarga inkluziv IT ta´lim berish boʻyicha loyihalarda hamkorlik amalga oshirilmoqda. Maktab binosida tashkil etilgan “Zamin Education” sinfi, inkluziv masofaviy IT ta´lim uchun yaratilgan va 100 dan ortiq videodarslarga ega boʻlgan www.zamineducation.uz platformasi, “Dasturlash asoslari” metodik qoʻllanmasi yaratildi. Inkluziv IT ta´lim boʻyicha malakali mutaxassislar, yuqori saviyali mentor, ekspert va kompaniyalarni topish va ularni jalb etish ishlari ham shular jumlasidan.

Abu Ali ibn Sino nomidagi kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirib oʻqitishga ixtisoslashtirilgan maktabning 5-8-sinf oʻquvchilari uchun “Fizika” (onlayn laboratoriya bilan birga) va “Matematika” fanlaridan darsliklar tajriba-sinovdan oʻtkazilib, nashr etishga tayyorlanmoqda. Shuningdek, tabiiy fanlar yoʻnalishida “Mening birinchi kitobim” loyihasi doirasida maktab oʻquvchilari tomonidan ingliz tilida “Basic Chemistry” va “a textbook of Botany”, rus tilida “Гигиена и профилактика зрительного анализатора у подростков” nomli kitoblari nashrdan chiqarildi.

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabining oʻquvchilari XVII xalqaro rus tili olimpiadasida II oʻrinni, 2021-yili 28 ta onlayn oʻtkazilgan kimyo fanidan 55-Xalqaro Mendeleyev olimpiadasida 2 ta kumush va 1 ta bronza medalni qoʻlga kiritdilar. Yaponiya davlati tomonidan tashkil etilgan 53-Xalqaro kimyo olimpiadasida bronza medal bilan taqdirlandi.

Mirzo Ulugʻbek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab oʻquvchilari mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida qatnashib, bir qator faxrli oʻrinlarni qoʻlga kiritdilar. Xususan, “GP200” offlayn tanlovi, “Technovation” xalqaro loyihasi, “Urban-tech” xakaton musobaqasi, “Человек и робот” sun'iy intellekt yaratish boʻyicha oʻtkazilgan musobaqalarda qatnashib, turli mukofotlar bilan taqdirlandilar. 2020-2021-oʻquv yilining bitiruvchilaridan 2 nafari “El-yurt umidi” jamgʻarmasi 3-bosqich stipendiya sohiblariga aylanishdi hamda AQShning Arizona va Kolorado universiteti talabalari boʻlishdi.

are being piloted in schools and presented to experts for comments.

**Over the past two academic years, 95 students from the initial 4 Presidential Schools have participated in prestigious international offline and online science Olympiads (VANDA, IJSO, SEAMO, SASMO, AMS, HKIMO, AMO, World Writing Cup, MIREA / EYLER, Innovum, Jautikov, OTEC, IBO, IPhO, and HIPPO) and won 45 1st place, 35 2nd place and 39 3rd place awards.**

The Agency's specialized al-Khwarizmi IT school works closely with the International Public Foundation “Zamin”. In particular, cooperation is being implemented in projects on inclusive IT education for young people with hearing impairments. The Zamin Education classroom in the school building, the www.zamineducation.uz platform for inclusive distance IT education with more than 100 video lessons, and the Basics of Programming manual have been created. This includes finding and recruiting qualified IT education professionals, high-level mentors, experts and companies.

New textbooks in Physics (with an online lab) and Mathematics for students in grades 5-8 at the Avicenna School of Advanced Studies in Chemistry and Biology are being piloted and prepared for publication. In addition, as part of the “My First Book” project in the field of natural sciences, schoolchildren have published books “Basic Chemistry” and “a textbook of Botany” (in Russian “ Гигиена и профилактика зрительного анализатора у подростков”).

A student of the Avicenna specialized school won 2nd place in the XVII International Russian Language Olympiad, as well as 2 silver and 1 bronze medals in 2021 at the 55th International Mendeleev Chemistry Olympiad. He was also awarded a bronze medal at the 53rd International Chemistry Olympiad organized by the Government of Japan.

Students of the Mirzo Ulugbek specialized school participated in local and international science Olympiads - the offline competition “GP200”, the international project “Technovation”, the competition “Urban-tech”, the competition for the creation of artificial intelligence “Man and Robot” - and were awarded various prizes. Two of the alumni of the 2020-2021 academic year have been awarded Stage 3 scholarships by the El-Yurt Umidi Foundation, and are currently students at the University of Arizona and the University of Colorado in the United States.

New Uzbekistan University

## YANGI O'ZBEKISTON UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH

Universitet xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlaydigan zamonaviy ta'lim maskani hisoblanadi.

## ESTABLISHMENT OF THE NEW UZBEKISTAN UNIVERSITY

The University is a modern educational institution that educates competitive, highly qualified students on the basis of international standards.

### MASSACHUSETS TEXNOLOGIYA INSTITUTI
### MASSACHUSETTS INSTITUTE OF TECHNOLOGY

**1861-yilda tashkil etilgan / Founded in 1861**

**Dunyo reytingida 1-o'rin / 1st place in the world**

- O'quv rejalar va dasturlar ishlab chiqiladi, uslubiy ko'mak beriladi — Curricula and programs are developed, methodological support is provide
- Laboratorilar va kutubxonalarni to'ldirishga yordam beradi — Helps to replenish laboratories and libraries
- Ilmiy maktab transferiga ko'maklashadi — Facilitates the transfer of a scientific school

### MYUNXEN TEXNIKA UNIVERSITETI
### MUNICH TECHNICAL UNIVERSITY

**1868-yilda tashkil etilgan / Founded in 1868**

**Dunyo reytingida 29-o'rin / 29th place in the world**

- O'quv rejalar va dasturlar ishlab chiqiladi, uslubiy ko'mak beriladi — Curricula and programs are developed, methodological support is provided
- Laboratoriyalar va kutubxonalarni to'ldirishga yordam beradi — Helps to replenish laboratories and libraries
- Ta'lim sifatini nazorat qilishga ko'maklashadi — Helps to control the quality of education

### STENFORD UNIVERSITETI
### STANFORD UNIVERSITY

**1891-yilda tashkil etilgan / Founded in 1891**

**Dunyo reytingida 2-o'rin / 2nd place in the world**

- Akademik mobillik amalga oshiradi — Academic mobility is realized
- Xalqaro stajirovlakalar tashkil etadi — International internships are organized

### XALIFA UNIVERSITETI (BAA)
### KHALIFA UNIVERSITY (UAE)

**2007-yilda tashkil etilgan / Founded in 2007**

**Dunyo reytingida 300-o'rin / 300th place in the world**

- Massachusets texnologiya instituti bilan hamkorlik qiladi — Collaborates with the Massachusetts Institute of Technology
- Birlashgan Arab amirligining eng yaxshi universiteti hisoblanadi — The best university in the United Arab Emirates

### KEMBRIJ UNIVERSITETI
### CAMBRIDGE UNIVERSITY

**1209-yilda tashkil etilgan / Founded in 1209**

**Dunyo reytingida 7-o'rin / 7th place in the world**

- Xalqaro standartlar asosida iqtidorli yoshlarni tanlashga yordamlashadi — Helps to select talented young people based on international standards
- Universitet qabul imtixonlarini o'tkazadi — The university conducts entrance exams

### SINGAPUR TEXNOLOGIYA VA DIZAYN UNIVERSITETI
### SINGAPORE UNIVERSITY OF TECHNOLOGY AND DESIGN

**2009-yilda tashkil etilgan / Founded in 2009**

**Dunyo reytingida 300-o'rin / 300st place in the world**

- Massachusets texnologiya instituti bilan 7 yillik hamkorlik qilgan — Collaborating with the Massachusetts Institute of Technology for 7 years
- Hozirgi kunda mintaqaning eng yaxshi universitetlaridan biri hisoblanadi — It is considered to be one of the best universities on the continent

## MUHANDISLIK FAKULTETI

- Kimyo muhandisligi
- Mexanika muhandisligi
- Elektrotexnika muhandisligi
- Qayta tiklanuvchi energiyalar (vodorod) muhandisligi

## SCHOOL OF ENGINEERING

- Chemical engineering
- Mechanical engineering
- Electrical engineering
- Renewable energies (hydrogen) engineering

## TABIIY FANLAR FAKULTETI

- Matematika
- Fizika
- Kimyo
- Biologiya

## SCHOOL OF NATURAL SCIENCES

- Mathematics
- Physics
- Chemistry
- Biology

## BOSHQARUV FAKULTETI

- Biznes va moliyaviy boshqaruv
- Xalqaro huquq (sohalar bo'yicha)
- Davlat boshqaruvi

## SCHOOL OF MANAGEMENT

- Business and financial management
- International law (by specialization)
- Public administration

## AGROTEXNOLOGIYALAR FAKULTETI

- Gen muhandisligi
- Atrof-muhit muhandisligi
- Biotizimlar muhandisligi
- Agroiqtisodiyot

## SCHOOL OF AGROTECHNOLOGIES

- Genetic engineering
- Environmental Engineering
- Biosystems Engineering
- Agroeconomics

## INFORMATIKA FAKULTETI

- Dasturiy injiniring
- Sun'iy intellekt
- Multimediya texnologiyalari
- Inson-kompyuter interfeysi

## SCHOOL OF COMPUTING

- Software engineering
- Artificial intelligence
- Multimedia technologies
- Human-computer interface

## 2021-2022 O'QUV YILIDA QABUL QILINGAN TALABALAR TARKIBI

## ADMISSION OF STUDENTS FOR THE 2021-2022 ACADEMIC YEAR

### TO'G'RIDAN-TO'G'RI SINOV IMTIHONLARISIZ QABUL QILINADI

### DIRECT ADMISSION WITHOUT EXAMS

**55** nafar Prezident maktabi bitiruvchilari

Graduates of the Presidential schools

Barcha bitiruvchilar "A" darajadagi sertifikatga ega bo'ladi

All graduates will have an "A" level international certificate

### OLIMPIADA G'OLIBLARI VA IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ OILA FARZANDLARI

### OLYMPIC WINNERS AND CHILDREN FROM FAMILIES IN NEED OF SOCIAL PROTECTION

**4**

5 yo'nalish bo'yicha xalqaro fan olimpiada g'oliblari

Winners of the International Science Olympiad in 5 fields

### KIRISH SINOV IMTIHONLARI ASOSIDA QABUL QILINADI

### ON THE BASIS OF EXAMS ARE ACCEPTED

**128** nafar Umumta'lim maktab bitiruvchilari

Secondary school graduates

Kirish imtihonlari Cambridge Assessment xalqaro tashkiloti tomonidan o'tkaziladi

Entrance exams will be conducted by the international organization Cambridge Assessment



2021

+998 (71) 207-20-17

info@piima.uz

Toshkent shahri Yashnabod tumani Mahtumquli ko'chasi
Tashkent city, Yashnabad district, Makhtumkuli street